


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

5. O‘rinboyevna M. M. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI //SHOKH LIBRARY. – 2025.
6. Kuchimov A. H. JIZZAX VILOYATIDA MADANIY HORQIQQA MO‘LJALLANGAN MEHMON UYLARINI YARATISH YO‘NALISHLARI //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 154-159.
7. Alpomishevna A. F. TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 7. – С. 632-640.
8. Ubaydullayev D. K., Murotqulova S. I., Pardaboyeva M. X. JIZZAX VILOYATIDA EKOTURIZM ISTIQBOLLARI //УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА УРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ. – С. 53.

JIZZAX VILOYATI HUDUDLARINING IQTISODIY O‘SISHINI BOSHQARISH MEKANIZMI VA STRATEGIYASI

i.f.f.d.,(PhD) Saloxitdinov Sherzod Farxodovich

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Iqtisodiyot va turizm kafedrasi.*

Zayniddinova Latofat Suvan qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs magistranti
zayniddinovaLatofat235@gmail.com*

Annotatsiya: Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini har taraflama o‘ziga xos infratuzilmaga ega bo‘lgan Jizzax viloyati kesimida qarab chiqadigan bo‘lsak, uning bog‘dorchilik, chorvachilik, ishlab chiqarish, sanoat zonalari, chakana savdo, turizm va xizmat ko‘rsatish kabi bir qator sohalarni rivojlantirish uchun barcha resurslar va yer maydonlari mavjudligini hisobga olsak, hududni rivojlantirish imkoniyatlari katta ekanini ta’kidlab o‘tish joiz. Quyida so‘nggi yillarda Jizzax viloyatining rivojlanishiga ta’sir etgan asosiy omillar, va ularning qonuniy jihatdan asoslangan ma’lumotlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, taraqqiyot dasturlari, hududiy iqtisodiy o‘sish, investitsiya dasturlari, infratuzilma, mehnat bozori, ishsizlikni qisqartirish, mintaqaviy yalpi ichki mahsulot, klaster yondashuv, eksport salohiyatini oshirish,

Kirish

Barcha hududlardagi kabi Jizzax viloyatida ham katta o‘zgarishlar bo‘layotgani hududning iqtisodiy samaradorligini oshirib kelmoqda. Bu o‘z

navbatida ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy erkinlikni ta‘minlab, hududning barcha salohiyatining rivojlanishiga olib keladi.

Bunda, asosiy omillar deb, investitsiyalarni jalb etish, ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, infratuzilma va ijtimoiy sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va eksport salohiyatini oshirish, sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirish, huquqiy-me‘yoriy bazaning mustahkamlanishi, mahalliy salohiyat va zaxiralarni aniqlash kabilarni sanab o‘tishimiz joiz.

Investitsiyalarni jalb etish masalasida so‘nggi yillardagi strategik yo‘nalishlardan biri — viloyatga investitsiyalarni ko‘paytirish. Masalan, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi ma‘lumotiga ko‘ra, so‘nggi yetti yilda Jizzax viloyatiga 5 milliard AQSH dollari qiymatida investitsiya jalb qilingan, 2,500 ta yangi korxona ishga tushirilgan, va ular orqali 45 ming dona doimiy ish o‘rinlari yaratilgan. Tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paygan. Bu o‘z o‘rnida ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishga katta imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism

Yangi korxonalar tashkil etilishi, kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi, ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish kabi chora-tadbirlar amalga oshiradi.

Mahalliy salohiyat va zaxiralarni aniqlash yuzasidan hududdagi, tumanlardagi imkoniyatlar (yer, meva – bog‘dorchilik uchun yer maydonlari, turizm salohiyati, sanoat zonlari) aniqlanib, ularni ishlatishga yo‘naltirilmoqda.

Shu bois, iqtisodiy kompleks vakillari tumanlarni chuqur o‘rganib, viloyatda 57 ming ish o‘rni yaratish imkoniyatlarini chamaladi. Umuman, Jizzaxning 13 ta tumanida iqtisodiyotga turtki beradigan 100 ta imkoniyat va zaxiralar aniqlangan.

Masalan, Zarbdor tumani misolida ko‘rsatib o‘tsak, tumandagi tijorat banklari mahalliy tadbirkorlar muammolarini hal qilib, faoliyatini kengaytirishga ko‘maklashadi. “Zarbdor tekstil” korxonasi quvvatlari oshiriladi. “Rivoj davr” fermer xo‘jaligi aholiga bo‘lib berilgan yerlarda qovun yetishtirish va uni qayta ishlash orqali 28 million dollar eksport qilishni rejalashtirgan.

Shuningdek, 2024-yil 9-aprel kuni Zarbdor tumanida Jizzax viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda, davlatimiz rahbari Jizzax viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslarni ma‘lum qildi. Jizzax viloyatida mahalla infratuzilmasini yaxshilash, biznesni qo‘llab-quvvatlash, grantlar ajratish uchun qo‘shimcha 300 milliard so‘m yo‘naltirilishi belgilandi.

Qishloq xo‘jaligi va eksport salohiyatini oshirish masalasida esa, mahsulot hajmini oshirish, intensiv ekin yerlarini kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash kabi strategiyalar mavjud. Viloyatda qishloq xo‘jaligi imkoniyatlari katta. Lekin eksport uchun yetarli mahsulot yo‘q. Shu bois ekinlarni ko‘paytirish bo‘yicha yangicha tizim joriy qilinadi. Xususan, banklar o‘ziga birlashtirilgan 309 ta mahallaga lider tadbirkorlarni topadi. U orqali aholiga tomorqada daromad topish uchun moliyaviy xizmat to‘plami qilib beriladi. Buning uchun banklar lider tadbirkorlarga aylanma uchun 3 yil muddatga 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar

ajratadi, budget hisobidan agronom jalb qilish, o‘qitish, mahallada yig‘ish, saqlash va quritish punktlarini tashkil qilish uchun 1 milliard so‘mgacha grantlar beradi, “Oilaviy tadbirkorlik” dasturidan 33 million so‘mdan, “Biznesga birinchi qadam” dasturidan 17 million so‘mdan kredit ajratadi.

Tumanlarda bittadan yaxlit kontur tanlab olinib, jami 500 gektar maydonda bir xil mahsulot yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi. Arnasoyda 16 sentnerdan kam hosil olinayotgan yerlar lotlarga bo‘linib, meva-sabzavot ekadiganlarga taklif qilinadi.

Bularning natijasida viloyatda meva-sabzavot yetishtirish hajmini ikki yilda 2 karra oshirib, 3 million tonnaga, keyinchalik 5 million tonnaga olib chiqish imkoniyati bor. Bu qayta ishlash va eksportni ham 2-3 barobar oshirishga zamin bo‘ladi.

Viloyatda kasanachilik asosida asalarichilikni rivojlantirish uchun imkoniyat ham, tadbirkorlar ham bor. Masalan, o‘rmon xo‘jaligi yerlariga asalari qutilarini joylash orqali mingta oilaning bandligini ta‘minlash, 50 milliard so‘m qo‘shimcha daromad olish, 2 million dollar eksportga chiqarish mumkin. Shu bois Zomin tumanida asalarichilik markazi tashkil qilish, quti va jihozlar ishlab chiqarish, asalni qadoqlab, eksportga yuborish vazifalari belgilandi.

Yangiobod tumanidagi lalmi yerda oq piyoz yetishtirish, quritish, qadoqlash va muzlatgichli omborxonani qamrab olgan klaster tashkil qilish taklifi qo‘llab-quvvatlandi. Chorvachilik, baliqchilik va issiqxona xo‘jaligi uchun qulayliklar ham aytib o‘tildi.

“Janubiy Mirzacho‘l” va “Tuyatortar” kanallarini betonlash, nasoslar o‘rnatish qishloq xo‘jaligidagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Mutasaddilarga bu borada uch yillik dasturni amalga oshirish bo‘yicha topshiriq berildi.

Sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirish yuzasidan sanoat mahsulotlari hajmini oshirish, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, maxsus sanoat zonalarini, qo‘shimcha loyihalar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaxshilash. Sanoat rivoji uchun ham zaxirlar ko‘p. Masalan, xitoylik investorlar Jizzaxda qurilish materiallari, kimyo, energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, to‘qimachilik va farmatsevtika tarmoqlarida 4 milliard dollarlik 22 ta loyiha taklifini bildirgan. Ularning natijasida sanoat 12 trillion so‘mga o‘sadi, 250 million dollar eksport imkoniyati yaratiladi. Buning uchun Zomin tumanida sanoat texnoparki tashkil etilib, 1 milliard dollar xorijiy investitsiya hisobiga 50 ta yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Zarbdor tumanining Shodlik mahallasida “Jizzax” sanoat zonasi filiali ochilib, 140 million dollarlik 15 ta yirik loyiha joylashtiriladi. Sharof Rashidov tumanidagi bo‘sh turgan inshootda sanoat zonasi tashkil qilinib, elektrotexnika va charm sanoati bo‘yicha korxonalar ishga tushiriladi.

So‘nggi yillarda Jizzaxda avtomobilsozlik vujudga keldi. Kelgusi uch yilda 1 milliard dollar investitsiya hisobidan uning quvvatini yana 100 mingtaga oshirib, 10 mingta ish o‘rni ochish, mahalliyashtirish darajasini 50 foizga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Paxta-to‘qimachilik tarmog‘ida 220 million dollarlik 29 ta loyiha amalga oshirilishi aytiladi.

Elektr jihozlari ishlab chiqaruvchi “Mono elektrik” korxonasi kasanachilik asosida ko‘zi ojiz insonlarni ish bilan ta‘minlash tashabbusi bilan chiqqan. Davlatimiz rahbari ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlab, bu borada Jizzax

tajribasini yo‘lga qo‘yish, shunday kasanachilik loyihalarini ko‘paytirish zarurligini ta’kidladi.

Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimida sayyohlar uchun sharoit yaratish, 10 ta madaniy meros maskanida “turizm halqasi” tashkil etib, ularga eltuvchi yo‘llarni ta’mirlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘tgan davrda zarur infratuzilma va inshootlar barpo etildi. Yaqinda ilk korxona – “Xinjiang Honglin Tiandi” kompaniyasi tomonidan qiymati 10 million dollarlik beton mahsulotlari tayyorlash loyihasi ishga tushirildi. 60 kishining bandligi ta’minlandi.

Ayni kunlarda 42 million dollarlik ikkinchi loyiha bo‘yicha ishlar yakuniy bosqichda. Unda “Midea” brendi ostida yiliga 300 ming dona maishiy elektr texnikalari ishlab chiqariladi. 150 ta ish o‘rni yaratiladi.

Jizzax viloyatida ham keyingi yillarda qayta ishlash sanoati hajmi sezilarli darajada oshdi. “Zomin texnoparki” qurilishini o‘tgan yili 27 iyunda davlatimiz rahbari boshlab bergan edi. 400 gektarda barpo etilayotgan texnoparkda xitoylik investorlar bilan birgalikda 1 milliard 200 million dollarlik 31 ta loyiha amalga oshiriladi.

Navoiy” maxsus sanoat parkining filiali sifatida tashkil etilgan majmua 80 gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 150 million dollar. Bu yerda kir yuvish mashinasi, sovutkich, televizor, elektr suv isitkich kabi yiliga 1 million dona maishiy texnika hamda butlovchi qismlar ishlab chiqariladi. 100 turdagi mahsulotlar natijasida mahalliyashtirish darajasi 70 foizga yetadi. Muhimi, yillik ishlab chiqarish hajmi 320 million dollarni tashkil etadi. Shundan 140 million dollarlik mahsulot eksportga yo‘naltiriladi. 7 mingdan ziyod aholi ish bilan ta’minlanadi.

Sanoat parkida tayyorlangan mahsulotlar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston singari 15 dan ortiq mamlakatga eksport qilinadi. Birinchi bosqichda maxsus sanoat zonasiga 9 ta loyiha joylashtirilgan. Bugungi kunda qariyb 300 million dollarlik yana 7 ta loyiha bo‘yicha qurilish ishlari davom etmoqda. Ularda qurilish materiallari, konstruksiyalar, elektr texnikasi va kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi, logistika va trening markazi tashkil etiladi.

Umuman, sanoat zonasidagi barcha loyihalar natijasida qariyb 5 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 15 turdagi yangi mahsulot o‘zlashtirilib, 70 million dollarlik eksport salohiyati yaratiladi. Eng muhimi, 5 mingdan ortiq fuqaro ishli bo‘ladi.

Xulosa

Jizzax viloyati hududlarining muvozanatli rivojlanishi uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur. Buning uchun byudjet siyosati, investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma va kadrlar tayyorlash sohalarida izchil islohotlar talab qilinadi. Mintaqaviy taraqqiyot nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo‘shadi. Shuningdek, maqolada keltirib o‘tilgan masalalarning muammolari va ularga muvofiq takliflar keltiradigan bo‘lsak,

Qiyinchiliklar:

- Hududning iqtisodiy imkoniyatlarini to‘liq foydalanilmayotganligi;
- Byudjet resurslarining chekliligi;

- Zamonaviy boshqaruv samaradorligining pastligi;
- Hududlarning iqtisodiy barqarorligiga ta’sir etuvchi ishsizlik, tovar va xizmat ko‘rsatishning pastligi, inflyatsiya kabi bir qator omillarning mavjudligini sanab o‘tishimiz mumkin.

Taklif etilayotgan yechimlar:

- ✓ Hududlarni moliyalashtirishni ko‘paytirish va shu bilan bir qatorda ma’lum sohalarida soliq imtiyozlarini kuchaytirish orqali hududiy-iqtisodiy tiklanishni yuzaga keltirish;
- ✓ Xususiy sektorni rag‘batlantirish (PPP – davlat-xususiy sheriklik) orqali ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohalarini yanada rivojlantirish nazarda tutiladi;
- ✓ Raqamli iqtisodiyotga o‘tish -, „Yashil iqtisodiyot“ va aqlli shaharlar resurslar tejamkorligini va yashash sharoitlarining farovonligini oshirishda samaradorlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.
- ✓ Davlat organlarining shaffofligini yanada targ‘ib qilib, inson omilini qisqartiruvchi online-davlat xizmatlarini keng yo‘lga qo‘yish orqali korrupsiya va hududiy (tanish-bilish)chilikka yo‘l qo‘ymaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
2. <https://president.uz> Prezident SH. Mirziyoyevning rasmiy veb sayti;
3. Jahon banki va BMTning O‘zbekiston bo‘yicha hisobotlari;
4. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi;
5. stat.uz statistika boshqarmasi rasmiy sayti;
6. Мамлакатимизда хизматлар соҳасининг ривожланиши ва таркибий ўзгаришлари таҳлили;
7. Ш Салохитдинов - Центральноеазиатский журнал образования и ..., 2023
8. O‘SISHNI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI
9. S Saloxitdinov, SIOZB IQTISODIY
10. Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization
11. Ўзбекистонда меҳнат бозори ва унинг амал қилиш хусусиятлари; Фарходович Салохитдинов, Шерзод .2020/7 Журнал Молия ва банк иши (электрон илмий журнали)

O‘ZBEKISTONDA GASTRONOMIK TURIZMNING AHAMIYATI VA TUTGAN O‘RNI

Barakayev Elbekjon Abdulla o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda gastronomik turizmning rivojlanish jarayoni, uning turizm industriyasidagi o‘rni va iqtisodiy ta’siri yoritilgan. Xalqimiz milliy taomlarining betakrorligi, ularning tarixiy-madaniy meros bilan uyg‘unligi hamda xorijiy sayyohlar e’tiborini tortayotgan asosiy